

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**



**В Е С Т Н И К**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

---

liliga asoslangan. Bemorlarning 19 nafari 8-12 yosh, 90 nafari esa 13-17 yosh toifasiga mansub. Ularning barchasi "o'tkir qorin" sindromi klinikasi bilan bizni markazimizga shoshilinch murojaat qilgan.

Barcha bemorlarga umumiy qorin bo'shlig'i UTT (ultratovush tekshiruvi), laborator tahlillar (umumiy qon va siydik tahlili, biokimyoviy qon tahlili) va diagnostik laparoskopiya o'tkazildi.

**Natijalar:** O'tkir qorin sindromi bilan kelgan qizlarda ginekologik patologiyalarni tasdiqlash maqsadida, bemorlarda qorin bo'shlig'ining umumiy UTT o'tkazildiva diagnostik laparoskopiya amaliyoti o'tkazildi. Barcha bemorlardan umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, qon bioximiyaviy tahlillari olindi. 44 nafar bemorda o'tkir qorin sindromi alomatlari bachadon ortiqlarini yallig'lanishi oqibatida kelib chiqqanligi aniqlandi. Tuxumdon buralish 22 nafar qizlarda aniqlandi. 29 nafar bemor qizlarimizda tuxumdon kistalari aniqlangan bo'lsa, 14 nafarida esa tuxumdonlar apopleksiyasi aniqlanib ularni davolash ishlari olib borildi. Tuxumdon buralish 22 nafar bemorda aniqlanib, 19 nafarida endovideolaparoskopik usulda bartaraf etildi, 3 nafarida esa an'anaviy laparotomiya usulida bartaraf etilgan. 14 nafarida esa tuxumdonlar apopleksiya-si yorilishi natijasida qon ketish alomatlari aniqlagan bo'lsa, diagnostik laparoskopiya yordamida 9 nafarida qon ketish alomatlari to'xatilgan, 3 nafarida esa konservativ davo mualojalari yordam bergan. Jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan barcha bemorlar 4-5 kunlari qoniqarli ahvolda ambulator davolanish uchun uyiga javob berilgan.

**Xulosa:** «O'tkir qorin» sindromi turli xil ginekologik patologiyalar bilan bog'liq bo'lib, bolalar xirurglarining ushbu holatlarni muvaffaqiyatli tashxislash va optimal jarrohlik taktikasini tanlashida qo'shimcha bilim va malakalar talab etiladi. O'tkir ginekologik kasalliklarni o'z vaqtida tashxislash va samarali davolash bolalar xirurglari, ginekologlar va ultratovush diagnostikasi mutaxassislari o'rtasida yaqin hamkorlikni talab qiladi. Kam invaziv endovideolaparoskopik usullar o'tkir ginekologik patologiyalarni aniqlash va davolashda yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda, bu esa bemorlarning reabilitatsiya davrini qisqartirish, operatsiyadan keyingi asoratlar xavfini kamaytirish va umumiy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

## REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA ISHQORIY FOSFATAZA IZOFERMENTI MIQDORIY O'ZGARISHLARINING SUYAK VA TOG'AY TO'QIMASIDAGI DESTRUKTIV JARAYONLARGA BOG'LIQLIGI

Xaydaraliyev S.U., Karimov M.SH., Eshmurzayeva A.A.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

**Dolzarbligi:** revmatoid artrit keng tarqalgan, barcha mintaqalarda uchraydigan va bo'g'imlarda destruktiv o'zgarishlarni yuzaga keltiradigan autoimmun yallig'lanish kasalligi hisoblanadi. Kasallik ayniqsa qo'l barmoqlari bo'g'imlarida ortiga qaytmas destruktiv jarayonlarni yuzaga keltirganligi bois, suyak va tog'ay to'qimalaridagi jarayonlarni erta aniqlash muhim. Ishqoriy fosfataza bunda amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqot maqsadi:** revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarda tog'ay va suyak to'qimasida potologik destruktiv parchalanish kechishi kuzatiladi va bu jarayonlarni erta aniqlashda ishqoriy fosfatazanig miqdoriy o'zgarishlari diagnostik ahamiyatini baholash.

**Tekshiruv obekti va usullari:** tekshiruvga 90 nafar revmatoid artrit tashxisi bilan kasallangan milliy tibbiyot markazida davolanayotgan bemorlar va 30 nafar revmatoid artrit kasalligi bo'lmagan amaliy sog'lom kishilar olingan. Tekshiruvlarga 18 yoshdan oshgan bemorlar olingan bo'lib, 27 nafarida jigarida potologik o'zgarishlar aniqlanganligi bois, olingan natijalar hisobga olinmadi. Tadqiqotga jalb qilinganlar qonidan ishqoriy fosfataza miqdori aniqlandi va kasallik faollikdarajalari, kasallik davomiyligi, bo'g'imlar zararlanish darajasiga bog'liqliligi taxlil qilib chiqildi.

**Natijalar:** Olingan natijalarda ishqoriy fosfotazaning miqdoriy o'zgarishlari kasallik faolligiga bog'liq ekanligi malum bo'ldi. 21 nafar kasallikyuqori faollikda kechayotgan bemorlarda izoferment miqdori baland, 15 nafar past faollikdagi bemorlarda izoferment miqdori me'yor korsatkichlaridan biroz yuqoriligi aniqlanildi. Nazorat guruhidagi 30 nafar shaxs va 27 nafar kasallik remissiya davrida kechayotgan bemorlarda ham ishqoriy fosfataza fermentining mayor ko'rsatkichlarda ekanligi aniqlanildi. Va yana bir kasallik jihati bo'yicha tahlil qilinganda kasallik dastlabki bosqichlarida bo'g'imlarda destruktiv o'zgarishlar yuzaga chiqib ulgurmagani bemorlarda 57,14% da izoferment miqdori, bo'g'imlarda destruktiv o'zgarishlar bo'lganlarnikiga 42,86% qaraganda sezilarli ko'tarilganligi aniqlanildi.

**Xulosa:** Natijalarga asoslanib, kasallikni uning klinik kechishida yaqqol belgilari shakillanib ulgurmasidan qonda ishqoriy fosfataza izofermenti miqdorini tekshirib ko'rish orqali ham birlamchi ma'lumotlar olish mumkinligi va kasallik aktivligi izofermentning qondagi konsentratsiyasi bilan to'g'ri proporsionalligi ko'rinadi.

## UMUMIY JARROHLIK SOHASIDA ZAMONAVIY ANATOMIYA FANINING O'RNI

Tolmasov R.T., Xudoynazarova S.Sh.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

**Kirish:** Anatomicaning tibbiyot sohasidagi roli katta ahamiyatli bo'lib, u nafaqat anatomik tuzilmaalar haqida, balki diagnostika va jarrohlikda samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Umumiy jarrohlik tibbiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi aniq anatomik bilimlarga bog'liq. Zamonaviy anatomic fani jarrohlik amaliyotlarining xavfsizligini oshirish, diagnostika jarayonlarini takomillashtirish va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, virtual reallik (VR) ko'zoynaklari va Pirogov stoli kabi texnologiyalar jarrohlik amaliyotlarini yanada mukammal o'rganish va amalda keng qo'llanilmoqda.